

SANOAT VA INTERYER DIZAYNINING TA'LIMDAGI BOSQICHLARI

Salaxidinov M.S.

Respublika ixtisoslashgan dizayn maktabi direktori

Sanatshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Masuddin@mail.ru

Annatatsiya: Ushbu maqolada sanoat va interyer dizayn ta'limgagi bosqichlarining o'rni hamda istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, ayniqsa professional dizayn ta'limi sohasida samarali g'oyalar hamda tushunchalarni rivojlantirish jihatlari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: sanoat, interyer, dizayn, innovatsion, vatan, ilmiy-tadqiqot, chizmatasvir, rangtasvir, grafika, haykaltarosh, loyiha, integratsiya.

ЭТАПЫ ПРОМЫШЛЕННОГО И ИНТЕРЬЕРНОГО ДИЗАЙНА В ОБРАЗОВАНИИ

Салахидинов М.С.

Директор Республиканской специализированной

школы дизайна. Доктор философии по искусствоведению (PhD)

Аннотация: В данной статье рассматривается роль этапов промышленного и интерьерного дизайна в образовании и поддержке перспективной молодежи, реализации их таланта, эффективном налаживании научно-исследовательской и инновационной деятельности, особенности профессионального дизайнераского образования, аспекты разработки эффективных идей и концепций в области науки описаны.

Ключевые слова: промышленность, интерьер, дизайн, инновации, Родина, научные исследования, рисовальщик, живописец, график, скульптор, проект, интеграция.

STAGES IN EDUCATION OF INDUSTRIAL AND INTERIOR DESIGN

Salakhidinov M.S.

Director of the Republican Specialized Design School

Doctor of Philosophy in Arts (PhD)

Annotation: In this article, the role of industrial and interior design stages in education and the support of promising young people, the realization of their talent, the effective establishment of research and innovation activities, especially professional design education aspects of developing effective ideas and concepts in the field of science are described.

Key words: Industry, interior, design, innovative, homeland, scientific research, draftsman, painter, graphic, sculptor, project, integration.

O‘zbekiston Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzlusiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4306-son Qarori ijrosini ta‘minlash yuzasidan mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro‘yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish uchun qo‘srimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Ta‘kidlash kerakki, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo‘lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzlusiz tizimini takomillashtirish muhim vazifadir. Mazkur vazifalar ijrosini ta‘minlash hamda yoshlarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fan va san’atni o‘zlashtirishga bo‘lgan rag‘batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miqyosida Vatanimiz dovrug‘ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalash maqsadida. [1]

2022-yilda O‘zbekiston banklar assotsiatsiyasi rahbariyati, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti professori, “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasi, Respublika “Hunarmand” uyushmasi, “Fonon” zargarlik zavodi vakillari Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn mакtabiga tashrif buyurishdi. Tashrifdan ko‘zlangan maqsad yurtimizda zargarlik sohasini rivojlantirish va buning uchun sohada ta‘lim berish tizimini xalqaro standartlarga asoslangan yangi bosqichga olib chiqish, o‘zaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishdan iborat. Tashrif natijasida Singapur menejmentni rivojlantirish instituti hamda yurtimizdagi yetuk zargarlar bilan qo‘shma ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish kabi bir qator masalalarni yo‘lga qo‘yish kelishib olindi. Dizayn ta‘limiga aynan shunday qo‘shma ta‘lim dasturlari, korxonalardan bevosita amaliyot o‘tash muhimdir. [2]

Badiiy ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, unda asosan yettita o‘quv fanlari bloki mavjud. Rejadagi fan bloklarining o‘zaro uzviy aloqadorligi bo‘lajak dizayner mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning integratsiyalashgan jarayonlarini amalga oshirishning asosidir. O‘quv reja nafaqat ta‘lim berishning maqsad va vazifalarini samarali amalga oshirishni ta‘minlashga qaratilishi zarur, balki bo‘lajak mutaxassislarining bilim salohiyatini rivojlantirishni innovatsion darajada hal qilishi kerak. Shularni e‘tiborga olib, o‘quv bloklari orasidagi aloqadorlik qonuniyatlarini ko‘rib chiqsak. Bunga binoan o‘quv rejasidagi fanlar soni va nomi, ularning bo‘lajak dizayner mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha ta‘lim dasturidagi nisbiy ulushini muqobil holga keltirish lozim. Bu orqali raqobatbardosh zamonaviy dizayner mutaxassislarini tayyorlashga imkoniyat yaratiladi. [3]

O‘quv dasturlarida katta soatlar berilgan fanlar orasida naturani badiiy his qilish ko‘nikmasini rivojlantirish, loyihalash qobiliyatini shakllantirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan “Chizmatasvir” va “Rangtasvir” fanlarini ko‘rish mumkin. Shaklni his qilishni rivojlantirishda chizmatasvir, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik va loyihalash faoliyatları katta ahamiyatga ega. Ularni egallash jarayonida o‘quvchilarda maqsadli ravishda makonda o‘z g‘oyasi mahsulini ifodalash va chizma, konsturksiya va modelda aks ettirish mahorati

shakllanadi. Inson va badiiy obyekt orasida erkin muloqotni yaratish uchun insonni ko‘rish, eshitish va his etishga rag‘batlantirish lozim. Ushbu ko‘nikmalar o‘quvchidagi qobiliyatlarini chuqurashtirib, badiiy tarbiya madaniyatiga aylanadi. [4]

Dizayn ta’limiga yo‘naltirilgan ixtisoslashtirilgan maktab va oliv ta’lim muassasalari erkin ijodiy kommunikatsiya maydoni bilan ajralib turishi, o‘z maqsadini zamonaviy texnologiyalarga tez moslashuvchan, tizimli loyihibaviy-badiiy tafakkurga ega shaxslarni tarbiyalashga qaratishi lozim. O‘quv jarayoni ilmiylik, uzlusiz rivojlanish tamoyiliga asoslangan bo‘lib, ijodiy faollik, integratsiya, loyihibaviy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltiriladi.

O‘quvchilarda dizaynerlik qobiliyatini shakllantirish uchun beshta ichki va tashqi sifatni ularda tarbiyalash muhim deb hisoblanadi:

Besh ichki sifatlar: 1) xotira; 2) tasavvur; 3) fikrlash; 4) tushunish; 5) so‘zlash (izhor qila olish).

Besh tashqi sifatlar: 1) zavqlanish; 2) eshitmoq; 3) ko‘rmoq; 4) sezmoq; 5) yaratmoq.

Yurtimizdagi yosh tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra o‘quvchilarni dizaynerlik negizining asl mohiyati bilan chuqur tanishtirish ularda bu boradagi malakaning kutilgan darajada shakllanishiga olib keladi.

O‘quvchilarni sanoat va interyer dizayniga aloqador xomashyolar bilan ishslash, ularning imkoniyatlarini his etishga o‘rgatish jarayonida quyidagilarga e’tibor berish kutilgan samarani beradi:

a) dizayn mahsulotlari va materiallarining xususiyatlari, tarkibi va ulardan foydalanish qoidalari bilan tanishtirish;

b) o‘quvchilarni ranglar, yog‘och, plastmassa, temir, dizayn ashyolari va boshqa materiallar bilan ishslashga o‘rgatish;

v) talabalarda mustaqil ijodkorlik ko‘nikmasini tarbiyalash;

g) o‘quvchilarni o‘z ijodiy layoqati, iste’dodi va qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga odatlantirish. [5]

Marina Borodina dizayn ta’lim haqida shunday asosli fikrlar bildiradi: “Dizayn – nafaqat san’at, bu birinchi navbatda fikrlash usulidir. Chunki biz ko‘p hollarda tasviriy san’at obrazlarida buyumlarning muayyan elementlarini uyg‘unlashtirilganini ko‘ramiz va bunda oddiy kitch buyumlar yuzaga keladi. Dizaynerlik san’atiga o‘rgatish uchun talabalarni obyektlarni stilizatsiyasiga, tasviriy qismni soddalashtirishga o‘rgatish lozim. Talabalarni albatta bu kabi bilimlarga o‘rgatish zarur, ular stilizatsiya, ya’ni uslublashtirish nima ekanligini anglashlari kerak. Bugungi kunda dizayn bozorini egallab olgan buyumlar industrial dizayn buyumlaridir, masalan lampalar, kreslolar”. [6]

Oliy ta’lim bosqichida dizaynga o‘qitish jarayoni talabada tizimli dizaynerlik tafakkurini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi joiz. Tizimli dizaynerlik tafakkuri chuqur umumiyl mutaxassislik bilimlariga asoslangan maxsus ta’limni talab etadi. Ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra dizaynerlik tafakkuriga quyidagi sifatlarni kiritish mumkin: konstruktivlik, maqsadga muvofiqlik, vaziyatga moslashuvchanlik, o‘zgaruvchanlik, uslubni, uslubiy mutanosiblikni his etish. Talabalar bo‘lajak mutaxassis sifatida berilgan vazifani o‘z g‘oyasi bilan o‘zaro bog‘lay olishi, maqsadga erishish uchun eng foydali, iqtisodiy, oqilona vositalarni asosli tanlay olishi, qulay loyihibalar taqdim eta olishi kerak.

O‘quv dasturidagi fanlar talabada o‘zaro uzviy holda dizaynerlik tafakkurining asosi bo‘lgan noan’anaviylik, nostandard shakllar, usullar, muammoni hal qilish usullari, faoliyatning samarali usullaridan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilishi zarur. Uslubni his etish majmuaviy xarakterdagi buyumlar, interyerdagi badiiy o‘ziga xoslikni namoyon etuvchi fazilat sanaladi. Shuningdek, talabada yakdillik, birlikka asoslangan ranglar uyg‘unligini topa olish, turfa xil g‘oyalarni bera olishi, vaziyatlarga moslashuvchanlik qobiliyati tizimli dizaynerlik tafakkuridan darak beradi. [7]

Sanoat va interyer dizaynida “inson va predmet” yoki “predmet va muhit”ning o‘zaro aloqadorligini belgilash muhimdir. Maishiy texnika, dastgohlar va mashinalarning atrof-muhit bilan muvofiqligi ularning interyer, shahar muhitidagi o‘rniga bog‘liq holda shakklanadi. “Muzlatkich, kir yuvish mashinasи, televizor uchun muhit bilan bog‘liqlikni har tomonlama ko‘rib chiqish zarur. Bunda uning shakli, uslubiy yo‘nalishi, buyumlarning jihozlar yoki santexnika qurilmalari bilan o‘zaro muvofiqligi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Transport kabi buyumlarda muhit bilan aloqadorlik murakkabroq kechadi. Ular uchun ko‘cha, tabiat muhit sanaladi. Muhitning doimiy o‘zgarishi dizayner tomonidan e’tiborga olinishi lozim. Bu yerda masshtab, shaklning “ko‘rimliliği”, uning informativligi kabi masalalar asosiy talabga aylanadi”.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *O‘zbekiston Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4306-son Qarori.*
2. Бобоева З. Рахмонов Х. *O‘quvchilarning ta’lim jarayonida dizaynerlik mahoratini shakllantirish. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 12. Б. 1018.*
3. Бородина М. *Актуальные проблемы дизайна в Узбекистане. SAN’AT. – Тошкент, 2015. №3.*
4. Илина О.В. *Проектирование в промышленном дизайне. Учебно-методическое пособие. – Санкт Петербург. 2015. – 9 с.*
5. Ковешникова Н.А. *Дизайн: история и теория: учеб. пособие для студентов архитектурных и дизайнерских специальностей. – М.: Издательство «Омега-Л», 2009. – 224 с.: ил*
6. Lindinger H. *Ulm Design: The Morality of Objects. - The MIT Press, 1991. - ISBN 0262121476*
7. Аронов В.Р. *Теоретические концепции зарубежного дизайн. Под ред. В.Ф. Сидоренко. М.: Труды ВНИИТЭ, 1992. 121 с. С. 11*